"RO'YXATGA OLINGAN"
Dehqonobod tuman davlat xizmatlari markazi tomonidan
2024-yil 05-yanvardagi _____-son bilan
2350887

"TASDIQLANGAN"
"Dehqonobod kaliy zavodi" AJ yagona aksiyadorining
2024-yil 3-yanvardagi 1-son qarori ilovasi bilan

DEHQONOBOD KALIY ZAVODI AKSIYADORLIK JAMIYATI

U S T A V I
(yangi tahrir)

Dehqonobod - 2024-yil

1	Umumiy qoidalar	3
2	Jamiyatning yuridik maqomi, pochta manzili va elektron pochta manzili	3 – 4
3	Jamiyat faoliyatining maqsadi va asosiy yo'nalishlari	4 – 5
4	Jamiyat Ustav fondining miqdori, uni ko'paytirish va kamaytirish tartibi	5 – 6
5	Jamiyatning aksiyalari, ularning nominal qiymati, ularni joylashtirish tartibi va e'lon qilingan aksiyalar	6
6	Jamiyat aksiyadorlarining huquq va majburiyatlari	6 – 7
7	Jamiyat foydasini, dividendlarni taqsimlash va zararni qoplash tartibi	7 – 8
8	Jamiyatning zaxira fondini va boshqa fondlarini tashkil etish tartibi	8
9	Jamiyatni boshqaruv organlari	8
10	Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi	8 – 11
11	Jamiyat Kuzatuv kengashi	11 – 14
12	Jamiyat Ijroiya organi (Boshqaruv)	14 – 16
13	Jamiyatning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisoboti	16
14	Jamiyatning faoliyatini nazorat qilish	16 – 18
15	Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish	18
16	Ustavga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish	19

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. **«Dehqonobod kaliy zavodi» aksiyadorlik jamiyati** (matn davomida Jamiyat deb nomlanadi) Jamiyat ta'sischilarining 2019-yil 24-maydagi qaroriga asosan tashkil topgan. Jamiyat «Dehqonobod kaliy zavodi» mas'uliyati cheklangan jamiyatini qayta tashkil etilishi natijasida tashkil etilgan.

1.2. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 27-oktabrdagi F–684-sonli Farmoyishi hamda «O`zkimyosanoat» Davlat aksiyadorlik kompaniyasining 2011-yil 03-noyabrdagi 110-son buyrug'i asosida tashkil etilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani hokimiyati tomonidan 2011-yil 22-noyabrda 517-son reestr raqami bilan Davlat ro'yxatiga olingan. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi huzuridagi davlat xizmatlari agentligi Qashqadaryo viloyat boshqarmasi Dehqonobod tuman davlat xizmatlari markazi tomonidan 2018-yil 16-aprelda 71109-son reestr raqami bilan qayta ro'yxatga olingan «Dehqonobod kaliy zavodi» mas'uliyati cheklangan jamiyati ning barcha moliyaviy huquq va majburiyatlari buyicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

1.3. Jamiyatning o'zbek tilidagi to'liq rasmiy nomi:

- lotin alifbosida – **"Dehqonobod kaliy zavodi" aksiyadorlik jamiyati;**
- kirill alifbosida – **"Dehqonobod kaliy zavodi" aksiyadorlik jamiyati.**

Jamiyatning o'zbek tilidagi qisqartirilgan nomi:

- lotin alifbosida – **"DKZ" AJ**
- kirill alifbosida – **"ДКЗ" АЖ**

Jamiyatning rus tilidagi to'liq rasmiy nomi:
Акционерное общество «Дехканабадский калийный завод»

Jamiyatning rus tilidagi qisqartirilgan nomi:
АО «ДКЗ»

Jamiyatning ingliz tilidagi to'liq nomi:
«Dekhanabad Potash Plant» Joint stock company

Jamiyatning ingliz tilidagi qisqartirilgan nomi:
«DPP» JSC

2. JAMIYATNING YURIDIK MAQOMI, POCHTA MANZILI VA ELEKTRON POCHTA MANZILI

2.1. Jamiyat yuridik shaxs hisoblanadi va o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Jamiyatning xo'jalik faoliyati qaysi davlatlarning hududida amalga oshirilsa, ushbu davlatlarning qonunchiligi, xalqaro huquq me'yorlariga, shuningdek mazkur Ustavga muvofiq amalga oshiradi.

2.2. Jamiyat o'zining mustaqil balansiga va hisob raqamiga ega. Jamiyat hisob – kitoblarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi hududida va o'z ishlarini (xizmatlarini) sotish joylarida, shu jumladan Jamiyatning xo'jalik faoliyati amalga oshiriladigan davlatlar hududida joylashgan banklarda va boshqa kredit muassasalarida valyuta va boshqa hisob raqamlarni ochishi mumkin.

2.3. Jamiyat o'z firma nomidan foydalanishda mutlaq huquqqa ega. Jamiyat o'zining firma nomi davlat tilida to'liq yozilgan va timsoli tasvirlangan yumaloq muhriga (muhrda qo'shimcha ravishda firma nomi boshqa istalgan tilda ham ko'rsatilishi mumkin, o'z nomi yozilgan shtampi, blankalariga, tovar belgisiga va o'z timsoliga ega.

2.4. Jamiyat o'z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

2.5. Davlat va uning organlari Jamiyat o'z zimmasiga olgan majburiyatlar yuzasidan javobgar bo'lmaydilar, xuddi shuningdek Jamiyat ham davlat va uning organlari olgan majburiyatlar yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

2.6. Jamiyatning mol – mulki unga mulk huquqi asosida tegishli bo'lib, Jamiyat aksiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag'lar, asosiy fondlar va aylanma mablag'lar, ko'char va ko'chmas mulklar, qimmatli qog'ozlar, olingan daromad, qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa asoslarda olingan boshqa mol – mulklardan tashkil topadi.

2.7. Jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik shaxs huquqini olgan sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlariga ega bo'lishi mumkin.

2.8. Jamiyat o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududida filiallar tashkil etishi hamda ularga qonun hujjatlari va Jamiyat Ustavida belgilangan doirada va tartibda vakolatlar berishi mumkin.

2.9. Jamiyat O'zbekiston Respublikasidan tashqarida yangi sho'ba korxonalar, filiallar tashkil etishi va vakolatxonalar ochishi hamda ularga qonun hujjatlari va Jamiyat Ustavida belgilangan doirada va tartibda vakolatlar berishi mumkin. Agar O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, Jamiyat tomonidan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida sho'ba korxonalar, filiallar tashkil etilishi va vakolatxonalar ochilishi, ushbu sho'ba korxona, filial va vakolatxona joylashgan mamlakat qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

2.10. Jamiyatning filiallari va vakolatxonalari yuridik shaxs hisoblanmaydi, Jamiyatning Kuzatuv kengashi tasdiqlagan Nizomlar asosida ish ko'radi.

2.11. Jamiyat o'zining yuridik manzilidan tashqari O'zbekiston Respublikasi hududida asosiy faoliyatni amalga oshirmaydigan ma'muriy idoralarini tashkil etishga haqli.

2.12. Jamiyat o'z faoliyatini muvofiqlashtirish, o'z manfaatlarini ifoda etish va himoya qilish hamda birgalikdagi dasturlarni amalga oshirish maqsadida uyushmalar (ittifoqlar) va o'zga birlashmalarda qatnashishi mumkin.

2.13. Jamiyat faoliyat ko'rsatish muddati cheklanmagan muddatga tuzilgan.

2.14. Jamiyatning pochta manzili: **O'zbekiston Respublikasi, 180405, Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumani.**

2.15. Jamiyatning elektron pochta manzili – **info@uz-potash.uz**, jamiyatning veb-sayti **www.uz-potash.uz**.

2.16. Jamiyat Toshkent shahrida joylashgan o'z vakolatxonasiga ega.

Jamiyat Vakolatxonasining davlat tilidagi to'liq rasmiy nomi:

- lotin alifbosida – **"Dehqonobod kaliy zavodi" aksiyadorlik jamiyati Toshkent shahridagi Vakolatxonasi**
- krill alifbosida – **"Деҳқонобод калий заводи" акциядорлик жамияти Тошкент шаҳридаги Ваколатхонаси**

Jamiyat Vakolatxonasining davlat tilidagi qisqartirilgan nomi:

- lotin alifbosida – **"DKZ" AJ Toshkent shahridagi vakolatxonasi**
- krill alifbosida - **"ДКЗ" АЖ Тошкент шаҳридаги ваколатхонаси**

Jamiyat Vakolatxonasining rus tilidagi to'liq rasmiy nomi:

- **Представительство акционерного общество «Дехканабадский калийный завод» в городе Ташкенте**

Jamiyat Vakolatxonasining rus tilidagi qisqartirilgan nomi:

- **Представительство АО «ДКЗ» в г. Ташкенте**

2.17. "Dehqonobod kaliy zavodi" aksiyadorlik jamiyati Toshkent shahridagi Vakolatxonasi joylashgan yeri (pochta manzili): **O'zbekiston Respublikasi, 100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 38-uy.**

3. JAMIYAT FAOLIYATINING MAQSADI VA ASOSIY YO'NALISHLARI

3.1. Jamiyat o'z faoliyatini tijorat asosida amalga oshiradi va asosiy maqsadi foyda olishdir.

3.2. Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- silvinit kaliyli tuz konlarida qazish ishlarini amalga oshirish;
- avtotransport vositalarida yuklarni tashish ishlarini amalga oshirish;
- foydali xom ashyo resurslarni qayta ishlash, ulardan tayyor mahsulot ishlab chiqarish;
- jamiyat tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlarni realizatsiya qilish;
- yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun loyihalashtirish ishlarini amalga oshirish;
- o'z xodimlarini O'zbekistonda, yaqin va uzoq xorij mamlakatlarida, shuningdek Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida o'qitish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini tashkil etish;
- o'ziga berilgan vakolatlar doirasida xorijiy mamlakatlar bilan aloqa qilish;
- O'zbekiston Respublikasida va xorijda firma do'konlari, supermarketlar, tijorat markazlarini ochish;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida tadbirkorlik, tashqi iqtisodiy, vositachilik, savdo-vositachilik, savdo-sotiq, tijorat-komission, konsignatsion, injiniring, marketing va reklama-axborot faoliyati bo'yicha xizmatlar, trast, brokerlik, dilerlik, distribyutorlik va boshqa tijorat xizmatlarini ko'rsatish, shu jumladan O'zbekistan Respublikasi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va xorij mamlakatlari yuridik va jismoniy shaxslarining ishonchnomasi asosida ishlab chiqarish – xo'jalik, tijorat va moliyaviy faoliyat sohalarida amalga oshiriladigan operatsiyalar;

- O'zbekiston Respublikasida va xorijda o'tkaziladigan yarmarkalar, ko'rgazmalar, auksionlar va savdolarni tashkillashtirish va ularda qatnashish;
- tijorat faoliyati, moliya va boshqaruv masalalari bo'yicha marketing tadqiqotlari va konsultatsiyalar olib borish;
- axborot va reklama faoliyati;
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish, uskunalar, tovarlar va xizmatlar importi hamda eksportini belgilangan tartibda mustaqil ravishda amalga oshirish;
- moliyaviy yordam ko'rsatish, kreditlar, zaymlar, ssudalarni berish, shu jumladan xayriya faoliyatini amalga oshirish;
- qimmatli qog'ozlar, ulushlar, paylar bilan har qanday turdagi operatsiyalarni, shu jumladan oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshirish;
- zarur hollarda boshqa tashkilotlar, shu jumladan chet ellardan xodimlarni jalb qilish.
- Jamiyat qonunchilik bilan ta'qiqlanmagan, va Ustavida ko'rsatilmagan har qanday faoliyat turi bilan qonun xujjatlarida belgilangan tartibda shug'ullanishi mumkin.

3.3. Maxsus ruxsatnoma (litsenziya) olishni talab qiladigan faoliyat turlari Jamiyat shunday litsenziya olinganidan keyin amalga oshiriladi.

4. JAMIYAT USTAV FONDINING MIQDORI, UNI KO'PAYTIRISH VA KAMAYTIRISH TARTIBI

4.1. Jamiyatning ustav fondi aksiyadorlar olgan jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi.

4.2. Jamiyatning ustav fondi uning mol – mulkining o'z kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan darajadagi eng kam miqdorini belgilaydi va **2 662 428 497 387 (ikki trillion olti yuz oltmish ikki milliard to'rt yuz yigirma sakkiz million to'rt yuz to'qson yetti ming uch yuz sakson yetti) so'mni tashkil qilib, 2 662 428 497 387** dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalardan iborat.
Bir dona aksiyaning nominal qiymati – 1 (bir) so'm.

a) Jamiyatning Ustav fondini ko'paytirish

4.3. Jamiyatning Ustav fondi qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

4.4. Qo'shimcha aksiyalar Jamiyat tomonidan Jamiyat Ustavida belgilangan e'lon qilingan aksiyalar soni doirasidagina joylashtirilishi mumkin.

4.5. Jamiyatning Ustav fondini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish va Jamiyat Ustaviga ustav fondini ko'paytirish hamda jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi qarorlar Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

4.6. Jamiyatning Ustav fondini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha oddiy aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddatlari va shartlari belgilangan bo'lishi kerak.

4.7. Jamiyatning Ustav fondini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida ro'yxatdan o'tkaziladi. Bunda Jamiyat Ustavida ko'rsatilgan e'lon qilingan muayyan turdagi aksiyalarning soni ushbu turdagi joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning soniga qisqartirilishi kerak.

4.8. Jamiyatning Ustav fondini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish jalb qilingan investitsiyalar, Jamiyatning o'z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

b) Jamiyatning Ustav fondini kamaytirish

4.9. Jamiyatning Ustav fondi aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Jamiyat tomonidan aksiyalarni olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

4.10. Jamiyatning Ustav fondini aksiyalarning bir qismini olish va bekor qilish yo'li bilan kamaytirishga yo'l qo'yiladi.

4.11. Jamiyat Ustav fondini kamaytirishga, agar buning natijasida uning miqdori Jamiyat Ustav fondining Jamiyat Ustavidagi tegishli o'zgartishlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish sanasida aniqlanadigan eng kam miqdoridan kamayib ketsa, haqli emas.

4.12. Ustav fondini kamaytirish va Jamiyat Ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

5. JAMIYATNING AKSIYALARI, ULARNING NOMINAL QIYMATI, ULARNI JOYLASHTIRISH TARTIBI VA E'LON QILINGAN AKSIYALAR

5.1. Jamiyat aksiyalari egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar bo'lib, ular turiga ko'ra oddiy aksiyalardir.

5.2. Aksiya bo'linmasdir. Agar aksiya umumiy mulk huquqi asosida bir nechta shaxsga tegishli bo'lsa, bu shaxslarning barchasi bir aksiyador deb e'tirof etiladi va aksiya bilan tasdiqlangan huquqlardan o'zlarining umumiy vakili orqali foydalanadi.

5.3. Aksiyalar mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida qaysi yuridik yoki jismoniy shaxsga tegishli bo'lsa, o'sha yuridik yohud jismoniy shaxs aksiyaning egasi - aksiyador deb e'tirof etiladi.

5.4. Oddiy aksiyalar ovoz beruvchi aksiyalar bo'lib, ular o'z egasiga dividendlar olish, Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huquqini beradi.

5.5. Jamiyat aksiyalarining nominal qiymati 1 (bir) so'm.

5.6. Jamiyat aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni ochiq va yopiq obuna vositasida joylashtirishga haqli.

5.7. Aksiyalarning ochiq obunasi faqat qimmatli qog'ozlarning birja bozorida va uyushgan birjadan tashqari bozorida o'tkaziladi.

5.8. Jamiyat aksiyalarining joylashtirilishi qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5.9. Jamiyat o'zi chiqargan aksiyalar bo'yicha ularni qaytarib sotib olish sharti bilan bitimlar tuzishga, shuningdek o'zi chiqargan aksiyalarni ishonchli boshqaruvga berishga haqli emas.

5.10. Jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari – Jamiyat Ustav fondini oshirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalariga qo'shimcha ravishda joylashtirishga haqli bo'lgan e'lon qilingan aksiyalarining soni nominal qiymati 1 (bir) so'mlik 8 029 039 467 864 (sakkiz trillion yigirma to'qqiz milliard o'ttiz to'qqiz million to'rt yuz oltmish yetti ming sakkiz yuz oltmish to'rt) dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalardan iborat.

6. JAMIYAT AKSIYADORLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Jamiyat aksiyadorlarining huquqlari quyidagilardan iborat:

- Jamiyatning aksiyadorlari reestriga kiritilish;
- o'ziga taaluqli depo hisobvarag'idan ko'chirma olish;
- Jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;
- Jamiyat tugatilgan taqdirda o'zlariga tegishli ulushga muvofiq mol – mulkning bir qismini olish;
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish orqali Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish;
- Jamiyatning moliya – xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;
- olgan dividendini erkin tasarruf etish;
- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;
- o'ziga yetkazilgan zararning o'rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;
- o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;
- qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urta qilish;
- o'zga aksiyadorlarning roziligisiz o'ziga tegishli aksiyalarni uchinchi shaxslarga begonalashtirish bilan bog'liq bitimlarni amalga oshirish;
- Jamiyat aksiyalari beradigan huquqlarni (huquqlarning bir qismini) qonunchilikda belgilangan tartibda ishonchnoma asosida o'z vakiliga (vakillariga) berish.

6.2. Aksiyadorlar mazkur Ustavda va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'ladilar.

6.3. Jamiyatning har bir oddiy aksiyasi uning egasi bo'lmish aksiyadorga bir xil xajmda huquqlar beradi.

6.4. Oddiy aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar ushbu Ustavga muvofiq aksiyadorlar umumiy yig'ilishida mazkur yig'ilish vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishi mumkin, shuningdek dividendlar olish, Jamiyat tugatilgan taqdirda esa, Jamiyat mol-mulkining bir qismini olish huquqini beradi.

6.5. Aksiyalarga bo'lgan huquqlar aksiyalarni oluvchiga uning depo hisobvarag'iga tegishli kirim yozuvi belgilangan tartibda kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda investitsiya vositachisi tomonidan beriladigan depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

6.6. Aksiya bilan tasdiqlanadigan huquqlar ularning oluvchisiga ushbu qimmatli qog'ozga bo'lgan huquqlar o'tgan paytdan e'tiboran o'tadi.

6.7. Jamiyat tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, haqi pul mablag'lari bilan to'lanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar ularni imtiyozli olish huquqiga ega.

6.8. Jamiyat aksiyadorlarining majburiyatlari:

- mazkur Ustavda ko'rsatilgan tartibda, miqdor va usullarda aksiyalarning narxini to'lash;
- mazkur Ustavda nazarda tutilgan chegaralarda, Jamiyat boshqaruv organlarining qarorlariga bo'ysunish;
- Jamiyatning maxfiy tusda bo'lgan axborotlarini oshkor qilmaslik;
- o'ziga oid ma'lumotlardagi o'zgarishlar haqida o'z vaqtida o'z aksiyalariga bo'lgan huquqlarini hisobga olish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi investitsiya vositachisini xabardor qilish.

6.9. Aksiyadorlar mazkur Ustavda va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'ladilar.

7. JAMIYAT FOYDASINI, DIVIDENDLARNI TAQSIMLASH VA ZARARNI QOPLASH TARTIBI

7.1. Amaldagi qonunchilikka asosan budjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan so'ng, Jamiyat fondlariga ajratmalar bajariladi. Taqsimlanmagan foyda Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan tartibda ishlatiladi.

7.2. Dividend Jamiyat sof foydasining aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadigan qismidir. Dividendlar jamiyatning jamiyat tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi.

7.3. Jamiyat aksiyalar bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart.

7.4. Dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yohud Jamiyatning qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin.

7.5. Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

7.6. Jamiyat moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko'ra joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

7.7. Aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror Jamiyat Kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Dividendlarning miqdori Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko'p bo'lishi mumkin emas.

7.8. Dividendlarni to'lash muddati va tartibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorida belgilanadi. Dividendlarni to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran oltmish kundan kech bo'lmasligi lozim.

7.9. Aksiyadorlarga dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan Jamiyat aksiyadorlarining reestrida qayd etilgan shaxslar aksiyalar bo'yicha dividend olish huquqiga ega.

7.10. Jamiyat quyidagi hollarda dividendlarni to'lash haqida qaror qabul qilishga haqli emas:

- agar dividendlar to'lanadigan paytda Jamiyatda bankrotlik belgilari mavjud bo'lsa yoki Jamiyatda shunday belgilar dividendlarni to'lash natijasida paydo bo'lsa;
- agar Jamiyat sof aktivlarining qiymati uning Ustav fondi va zaxira fondi summasidan kam bo'lsa.

Ushbu bandda ko'rsatilgan holatlar tugatilgach, Jamiyat hisoblangan dividendlarni aksiyadorlarga to'lashi shart.

7.11. Jamiyat dividendlar miqdorini ulardan undiriladigan soliqlarni inobatga olmagan holda e'lon qiladi.

7.12. Jamiyatning zararlari qonunchilikda belgilangan tartibda zaxira fondi mablag'lari hisobiga qoplanadi.

8. JAMIYATNING ZAXIRA FONDINI VA BOSHQA FONDLARINI TAShKIL ETISH TARTIBI

8.1. Jamiyatda sof foyda hisobidan Zaxira Fondi va Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan aniqlanadigan, Jamiyat faoliyati uchun zarur bo'lgan boshqa fondlar tuziladi.

8.2. Boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, Jamiyatning zaxira fondi Jamiyatning zararlari o'rnini qoplash, Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish va Jamiyatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi.

8.3. Zaxira fondidan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

8.4. Jamiyat Ustav fondining 15 (o'n besh) foizi miqdorda Jamiyat zaxira fondi tuziladi.

8.5. Jamiyat zaxira Fondiga ushbu Ustavning 8.4. bandida belgilangan miqdorga yetguniga qadar har yili sof foydadan 5% miqdorida ajratmalar o'tkazadi.

8.6. Zaxira Fondi to'laligicha yoki qisman sarflanib bo'lgan hollarida, majburiy ajratmalardan tiklanadi.

8.7. Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi qarori bilan Jamiyatning sof foydasi va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi hisobidan ajratmalar o'tkazish yo'li bilan, Dividend to'lash fondi tuzilishi mumkin. Jamiyatning Dividend to'lash fondi dividendlarni to'lash uchun mablag'larni zahiralash va keyinchalik aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga muvofiq aksiyadorlarga dividendlarni to'lab berish uchun mo'ljallanadi.

9. JAMIYAT BOSHQARUV ORGANLARI

9.1. Jamiyatning boshqaruv organlari quyidagilardan iborat:

- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi;
- Kuzatuv kengashi;
- Ijroiya organi (Boshqaruv).

10. JAMIYAT AKSIYADORLARINING UMUMIY YIG'ILISHI

10.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Jamiyatning yuqori boshqaruv organidir.

10.2. Jamiyat aksiyadorlarining yillik Umumiy yig'ilishi har yili moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi. Jamiyat aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig'ilishi odatda xar yili may oyining 01-sanasidan 31-sanasigacha bo'lgan davr oralig'ida o'tkaziladi.

10.3. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida Jamiyatning Kuzatuv kengashini va Taftishchini saylash to'g'risidagi, Jamiyatning Boshqaruv a'zolari bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi haqidagi masalalar hal etiladi, shuningdek Jamiyatning yillik hisoboti Jamiyatning Boshqaruvi va Kuzatuv kengashining Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora - tadbirlar to'g'risidagi hisobotlari va boshqa hujjatlari ko'rib chiqiladi.

10.4. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilishlardir.

10.5. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi va tartibi, yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) ro'yxati Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

10.6. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

a) Jamiyat Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyat yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash, Jamiyatning Ustav fondi miqdorini qo'shimcha aksiyalar joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish va Jamiyat Ustaviga ustav fondini ko'paytirish hamda jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bundan mustasno;

b) Jamiyatni qayta tashkil etish;

d) Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

e) Jamiyat Kuzatuv kengashining soni va tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish. Kuzatuv kengashi a'zolariga mukofot va kompensatsiyalar to'lash;

f) e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

g) Jamiyatning Ustav fondini kamaytirish;

g') o'z aksiyalarini qaytarib sotib olish;

h) Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, Jamiyat ijroiya organini tuzish, Jamiyat Boshqaruvining faoliyati tartibini belgilab beruvchi Nizomni tasdiqlash;

i) Jamiyat Boshqaruv raisi va a'zolarini saylash (tayinlash, yollash) va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish. Jamiyat Boshqaruv raisi va a'zolarini tayinlash to'g'risidagi qaror, odatda, xorijiy menejerlar ham ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov asosida qabul qilinadi;

j) Jamiyatning moliyaviy yil yakuni bo'yicha sof foydadan to'lanadigan rag'batlantiruvchi to'lovlar miqdorlarini belgilash;

k) Jamiyat taftishchisini saylash va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek Taftishchi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash. Taftishchiga mukofot va kompensatsiyalar to'lash;

l) Jamiyatning yillik hisobotini, shuningdek Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda Jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;

m) Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;

n) Jamiyat Kuzatuv kengashining va Taftishchining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Jamiyat Kuzatuv kengashining hisobotlarini va Taftishchining xulosalarini eshitish;

o) aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;

o') majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

p) aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

q) konunchilikda nazarda tutilgan hollarda yirik bitimlar tuzish xaqida qaror qabul qilish;

r) konunchilikda nazarda tutilgan hollarda Jamiyatning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish xaqida qaror qabul qilish;

s) dividendlar to'lash to'g'risida qarorni qabul qilish, aksiyalarning har bir toifasi va turi bo'yicha dividend miqdori, to'lov shakli va tartibini belgilash;

sh) Ijroiya organining affillangan shaxslar bilan va yirik bitimlarni mustaqil amalga oshirishi uchun Jamiyatning joriy xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bitimlarni aniqlash

ch) Korporativ boshqaruv kodeksi va korporativ boshqaruv qoidalari tavsiyalariga rioya etish majburiyatini olish to'g'risida qaror qabul qilish va xabarni oshkor qilish shaklini tasdiqlash;

t) Jamiyatning boshqaruv organlari to'g'risidagi, shu jumladan ichki nazorat, dividend siyosati to'g'risidagi, manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to'g'risidagi nizomlarini tasdiqlash;

u) Har yili mustaqil professional tashkilotlar – maslahatchilarni jalb qilgan holda biznes-jarayonlar va loyihalarning Jamiyatning rivojlanish maqsadlariga muvofiqligi yuzasidan tahlil o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish;

v) Homiylik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash, ularni amalga oshirish vakolatini kuzatuv kengashiga berish to'g'risida qaror qabul qilish;

x) Elektron pochta orqali (elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda), shuningdek, o'z vakolatini vakilga berish yo'li bilan ovoz berish yoki umumiy yig'ilishni videokonferens-aloqa tarzida o'tkazish tartibini belgilash (tasdiqlash);

y) Sanoq komissiyasiga amaliy ko'mak ko'rsatish yoki uning funksiyasini bajarish uchun mustaqil ekspertlarni jalb etish (masalan, investitsiya maslahatchisi yoki qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa professional ishtirokchisi) tartibini belgilash (tasdiqlash);

z) Jamiyat mablag'lari hisobidan minoritar aksiyadorlik qo'mitasini saqlash xarajatini qoplash (minoritar aksiyadorlik qo'mitasi tuzilgan taqdirda) tartibini belgilash (tasdiqlash);

ng) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hisobot beruvchi Jamiyat boshqaruv va nazorat organlari ma'ruzalari (hisobotlari) shakli va mazmuniga bo'lgan talablarni o'rnatish, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi davomiyligini belgilash;

aa) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida shaxsan ishtirok eta olmaydigan aksiyadorlar uchun elektron pochta orqali (elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda), shuningdek, o'z vakolatini vakilga berish yo'li bilan ovoz berish yoki umumiy yig'ilishni videokonferens-aloqa tarzida o'tkazish imkoniyati va sharoitini yaratish;

bb) qonunchilikda va mazkur Ustavda ko'zda tutilgan boshqa masalalarni hal etish.

10.7. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyat Boshqaruviga hal qilishi uchun berilishi mumkin emas.

10.8. Ushbu ustav bilan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatlariga kiritilgan masalalar Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan hal etilmaydi, qonunchilikda belgilangan hollar bundan mustasno.

10.9. Ovozga qo'yilgan masala bo'yicha aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining qarori, agar Qonun hujjatlarida va ushbu Ustavda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, yig'ilishda ishtirok etayotgan Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalari egasi bo'lmish aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

10.10. Ushbu Ustavning 10.6. bandidagi a) va s) qismlarda ko'rsatilgan masalalar bo'yicha qaror, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan faqat Kuzatuv kengashining taklifiga binoan qabul qilinadi.

10.11. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilmagan masalalar bo'yicha qaror qabul qilishga, shuningdek kun tartibiga o'zgartishlar kiritishga haqli emas.

10.12. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar, shuningdek ovoz berish yakunlari amaldagi qonunchilikda va ushbu Ustavda nazarda tutilgan tartibda, ushbu qarorlar qabul qilingan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay aksiyadorlar e'tiboriga yetkaziladi.

10.13. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan uch ish kuni oldin shakllantirilgan Jamiyat aksiyadorlarining reestrida qayd etilgan aksiyadorlar ega bo'ladi.

10.14. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida 21 kundan kechiktirmay, lekin uzog'i bilan 30 kun oldin Korporativ axborot yagona portalida, jamiyatning rasmiy veb – saytida, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.

10.15. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana uni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 21 (yigirma bir) kundan kam va 30 (o'ttiz) kundan ko'p etib belgilanishi mumkin emas.

10.16. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) Jamiyatning moliya yili tugaganidan keyin 90 (to'qson) kundan kechiktirmay aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritish yuzasidan takliflar kiritishga hamda Jamiyat Kuzatuv kengashi va taftishchiga bu organning miqdor tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga haqli.

10.17. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi Jamiyat Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra uning o'z tashabbusi asosida, Taftishchining yozma talabi, shuningdek yozma talab taqdim etilgan sanada Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabi asosida o'tkaziladi.

10.18. Jamiyat Taftishchisi yoki Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida talab taqdim etgan sanadan e'tiboran 10 kun ichida Jamiyat Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida yoki yig'ilishni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qilishi kerak.

10.19. Agar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami 50 foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatli (kvorumga ega) bo'ladi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun kvorum bo'lmasa, aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi e'lon qilinadi. Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazishda kun tartibini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Agar aksiyadorlarning o'tkazilmay qolgan yig'ilishi o'rniga chaqirilgan takroriy umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami 40 foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishi vakolatli bo'ladi.

10.20. Kvorum bo'lmaganligi sababli aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi 20 kundan kam muddatga ko'chirilgan taqdirda, umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar o'tkazilmay qolgan umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reestriga muvofiq aniqlanadi.

10.21. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin 10 kundan kechiktirmay 2 nusxada tuziladi. Har ikkala nusxa ham umumiy yig'ilishda raislik qiluvchi va umumiy yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi.

10.22. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini tashkillashtirish va o'tkazish bilan bog'liq boshqa masalalar amaldagi qonunchilik va Jamiyatning «Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risida» gi Nizomi bilan tartibga solinadi.

10.23. Jamiyat aksiyadorlar umumiy yig'ilishida aksiyadorlar vakili sifatida ishtirok etuvchi Jamiyat Boshqaruvi a'zolari Jamiyat Boshqaruv a'zolarini saylash masalasida ovoz berish huquqiga ega emas.

10.24. Barcha oddiy aksiyalar bitta aksiyadorga tegishli bo'lgan taqdirda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilmaydi. Mazkur ustav bilan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlar bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi hamda yozma shaklda rasmiylashtiriladi. Bunda qonunchilik va ushbu ustavda ko'zda tutilgan aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish, uni chaqirish va o'tkazish tartibini hamda muddatlarini belgilovchi qoidalari qo'llanilmaydi, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini o'tkazish muddatlariga taalluqli qoidalar bundan mustasno.

11. JAMIYAT KUZATUV KENGASHI

11.1. Jamiyatning Kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, amaldagi qonunchilik va Jamiyat Ustavi bilan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

11.2. Jamiyatning Kuzatuv kengashi kamida bir nafar (ammo Ustavda ko'zda tutilgan kuzatuv kengashi a'zolari sonining 15 foizidan kam bo'lmagan) a'zosi – yirik aksiyador bilan kelishilgan holda tavsiya etiladi va saylanadi.

11.3. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

a) Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora - tadbirlar to'g'risida Jamiyat Boshqaruvining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

b) Jamiyat aksiyadorlarining yillik va navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishlarini chaqirish, qonunchilikda ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno;

d) aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;

e) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyini belgilash;

f) aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun Jamiyat aksiyadorlari reestrini shakllantirish sanasini belgilash;

g) Ushbu Ustavning 10.6. bandidagi a) va s) qismlarida ko'rsatilgan masalalarni hal etishni aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishiga kiritish;

g') mol – mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

h) Jamiyatning Boshqaruv raisi va a'zolari vakolatlarini qonun xujjatlari va ushbu Ustavda belgilangan holatlarda muddatidan ilgari tugatish;

i) Jamiyatning Ustav fondi miqdorini qo'shimcha aksiyalar joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish va Jamiyat Ustaviga ustav fondini ko'paytirish hamda jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qarorlarni qabul qilish;

j) aksiyalar chiqarish to'g'risidagi qaror va emissiya risolasini tasdiqlash, shuningdek avval ro'yxatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlar chiqarilishlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qaror qabul qilish;

k) aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;

l) Jamiyatning yillik biznes – rejasini tasdiqlash. Bunda Jamiyatning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes – rejasi joriy yilning 1-dekabridan kechiktirmay ma'qullanishi lozim;

m) Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish shuningdek jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

n) qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

o) Jamiyatning ijroiya organiga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar miqdorini belgilash;

o') Jamiyatning ichki audit xizmatini tashkil etish, uning xodimlarini tayinlash va «Ichki audit hizmati to'g'risida» gi Nizomni tasdiqlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

p) Jamiyat Taftishchisiga to'lanadigan haq va kompensatsiya miqdori yuzasidan tavsiyalar berish;

q) Jamiyatning ijroiya organi faoliyatiga daxldor har qanday hujjatdan erkin foydalanish va ijroiya organidan Jamiyat Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun ularni olish. Olingan hujjatlardan Jamiyat Kuzatuv kengashi va uning a'zolari faqat xizmat maqsadlarida foydalanishlari mumkin;

r) dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

s) qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda yirik bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish (yirik bitim tuzish masalasi bo'yicha Jamiyat Kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan taqdirda yirik bitim tuzish to'g'risidagi masala Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqilishi mumkin);

sh) Jamiyatning zaxira fondi va boshqa fondlaridan (dividend to'lash fondidan tashqari) foydalanish;

ch) Jamiyatning filiallarini tashkil etish hamda vakolatxonalarini ochish va tugatish, shuningdek Jamiyat filiallari va vakolatxonalari nizomlarini tasdiqlash va ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

t) qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda Jamiyatning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish;

u) Jamiyatning sho'ba va tobe korxonalarini tashkil etish;

v) Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;

x) Korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;

y) Jamiyatning «Axborot siyosati to'g'risida» gi Nizomni tasdiqlash;

z) Jamiyat Boshqaruvi a'zolari lavozimiga tanlov e'lon qilish, tanlovning ob'ektiv mezonlari, ularning yakuni bo'yicha yangicha fikrlovchi, zamonaviy talablarga javob beruvchi yuqori malakaga ega bo'lgan, shuningdek, xorijiy menejerlarni tanlab olish jarayonlarini o'z ichiga olgan reglamentni tasdiqlash;

ng) Jamiyat ijroiya organi, ichki nazorat organi, Jamiyatda tashkil etilgan kollegial organlar faoliyatini muvofiqlashtirish, zarur bo'lganda, Jamiyat rivojlanish rejasini ishlab chiqishni tashkil etish va unda belgilangan maqsadlarga erishish monitoringi uchun ekspertlarni jalb etish;

aa) Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqish, uni joriy etish bo'yicha aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga tavsiya berish va muntazam baholanishi bo'yicha ishlarning qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiq tarzda amalga oshirilishini, shuningdek yillik moliyaviy hisobotlarni Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tarzda e'lon qilishga o'tish uchun malakali xizmat ko'rsatuvchi auditorlik yoki konsalting tashkilotlarini jalb etish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirishni ta'minlash.

bb) homiylik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) to'g'risida qarorlarni faqat aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan tartib va shartlar asosida, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan doirada, bu haqda barcha aksiyadorlar uchun ma'lumotlarni oshkor etgan tarzda qabul qilish;

dd) Jamiyatda korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazish uchun mustaqil tashkilotni tanlov asosida jalb etish;

ee) Jamiyatda Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalarini joriy etish yuzasidan nazoratni amalga oshirish;

ff) Kuzatuv kengashi barcha aksiyadorlarga, ularning ulushi, daromad darajasi, jinsi, irqi, dini, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar bir xil munosabatni ta'minlash;

gg) ushbu Ustav va amaldagi qonunchilikka muvofiq Jamiyat Kuzatuv kengashi vakolatlariga kiritilgan boshqa masalalarni ham hal etish;

11.4. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Jamiyat Ijroiya organiga o'tkazilishi mumkin emas.

11.5. Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari, amaldagi qonunchilik va mazkur Ustav asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan uch yillik muddatga saylanadilar. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining miqdor tarkibi **5 (besh) kishidan** iborat.

11.6. Jamiyatning Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.

11.7. Jamiyat Boshqaruv a'zolarining Kuzatuv kengashiga saylanishlari mumkin emas.

11.8. Jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari bo'lishi mumkin emas.

11.9. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengash a'zolari tomonidan ularning o'zlari orasidan Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi.

11.10. Jamiyat Kuzatuv kengashi o'z raisini jami a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qayta saylashga haqlidir.

11.11. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlisda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishlarida raislik qiladi.

11.12. Jamiyat Kuzatuv kengashi Raisi yo'q bo'lgan hollarda uning vazifasini Kuzatuv kengash a'zolaridan biri bajarib turadi.

11.13. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlislari uning Raisi tomonidan har chorakda kamida bir marta chaqiriladi. Bundan tashqari, Jamiyat Kuzatuv kengashining majlislari Kuzatuv kengash Raisining tashabbusi bilan yoki quyidagilar talabiga ko'ra chaqiriladi:

- Kuzatuv kengash a'zolarining;
- Taftishchining;
- Jamiyat Boshqaruviining;
- ichki audit hizmati boshlig'ining;
- Jamiyatning 1 (bir) foizdan kam bo'lmagan oddiy aksiyalari egalarining;
- qonunchilikda va mazkur Ustavda ko'rsatilgan boshqa hollarda.

11.14. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish uchun kvorum, Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolar sonining yetmish besh foizini tashkil qiladi.

11.15. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisida masalalar hal etilayotganda Kuzatuv kengashning har bir a'zosi bitta ovozga ega. Mazkur Ustavning 4.5. bandida va 11.3 bandining i), s) qismlarida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha qarorlar Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan (yakdillik bilan) qabul qilinadi.

11.16. Jamiyat Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini Kuzatuv kengashning boshqa a'zosiga berishiga haqli emas.

11.17. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan holda, Jamiyat Kuzatuv kengashi Raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.

11.18. Jamiyat Kuzatuv kengashi qarorlari bilan Jamiyat aksiyadorlari tanishtirilishi mumkin. Jamiyat aksiyadorlari Jamiyatning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlari bilan ham tanishishlari mumkin.

11.19. Jamiyat Kuzatuv kengashining qarorlari sirtdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) Jamiyat Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.

11.20. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilganidan so'ng o'n kundan kechiktirmay tuziladi.

11.21. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolanadi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.

11.22. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni Jamiyatning ijroiya organiga ijro etish uchun topshiriladi. Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda mazkur qaror haqidagi axborot Jamiyatning ijroiya organiga Kuzatuv kengashining majlisi o'tkaziladigan kuni topshiriladi.

11.23. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra, Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolariga ular o'z vazifalarini bajarib turgan davrda haq to'lanishi va Kuzatuv kengashining a'zosi vazifasini bajarish bilan bog'liq xarajatlari qoplanishi mumkin. Bunday haq va to'lovlarning miqdori jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan ichki xujjat bilan belgilab qo'yiladi.

11.24. Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari, o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z burchlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishlari lozim.

11.25. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari Jamiyat va uning aksiyadorlari oldidagi o'z majburiyatlarini zarur darajada bajarmaganliklari uchun qonun hujjatlariga va mazkur Ustavga muvofiq javobgar bo'ladilar.

11.26. Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari javobgar bo'lmaydi.

11.27. Jamiyat Kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan talablar aksiyadorlar Umumiy yig'ilishida tasdiqlangan «Jamiyat Kuzatuv kengashi to'g'risida» gi Nizomida belgilab qo'yiladi.

11.28. Jamiyat Kuzatuv kengashi qoshida Kuzatuv kengashi, Jamiyat Boshqaruvi a'zolarining, Jamiyat xodimlari va jalb etilgan ekspertlar (tegishli soha mutaxassislari, soha oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari va boshqalar) dan iborat tegishli masalalar, shu jumladan, nizoli vaziyatlarni aniqlash va hal etish bo'yicha qo'mitalar (ishchi guruhlari) tashkil etishi mumkin.

12. JAMIYATNING IJROIYA ORGANI (BOSHQARUV)

12.1. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik kollegial ijroiya organ – Jamiyat Boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi. Jamiyat Boshqaruvi **4 (to'rt)** nafar a'zodan iborat.

12.2. Jamiyat Boshqaruvi aksiyadorlar umumiy yig'ilishining va Jamiyat Kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalardan tashqari barcha masalalarni hal qilish vakolatiga ega.

12.3. Jamiyat Boshqaruvi ijro etuvchi organ hisoblanib, uning kundalik faoliyatini boshqaradi va operativ rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyat Ustavi, aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi va Jamiyat Kuzatuv Kengashining qarorlariga muvofiq amalga oshiradi.

12.4. Jamiyat boshqaruvi Boshqaruv raisi, boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari va boshqaruv raisining o'rinbosarlaridan iborat.

12.5. Jamiyat Boshqaruv raisi va a'zolari aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan uch yil muddatga har yili ular bilan tuziladigan shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida qaror qabul qilish bilan amalga oshiriladi. Boshqaruv raisi sifatida tayinlangan (qayta tayinlangan) shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq ijro organi rahbari bo'lishi mumkin emas;

12.6. Jamiyat Boshqaruvi Raisi bilan mehnat shartnomasi Jamiyat nomidan Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi tomonidan imzolanadi.

12.7. Boshqaruv a'zolari bilan mehnat shartnomalarini Jamiyat nomidan Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi yoki Jamiyat Kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs imzolaydi.

12.8. Jamiyat xodimlari mazkur Ustavga va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Jamiyat Boshqaruv raisi bilan mehnat shartnomasini tuzadilar.

12.9. Jamiyat Boshqaruvining vakolatlariga Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatlariga yoki Jamiyat Kuzatuv Kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

12.10. Jamiyat Boshqaruvi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Jamiyat Kuzatuv Kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi.

12.11. Jamiyat Boshqaruvi ushbu Ustav va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan «Ijroiya organi to'g'risida» gi Nizom asosida ish olib boradi.

12.12. Jamiyat Boshqaruvining majlisi zarur hollarda, biroq bir oyda kamida bir marta o'tkaziladi. Jamiyat Boshqaruvi tomonidan Kuzatuv kengash yoki Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritiladigan masalalar majburiy tartibda Boshqaruv majlisida oldindan muhokama etiladi. Boshqaruvning fikri haqida Kuzatuv kengashida va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida Boshqaruv Raisi yoki u tomonidan vakolat berilgan Boshqaruv a'zosi axborot beradi va himoya qiladi.

12.13. Jamiyat Boshqaruvi majlisi uning kun tartibiga kiritilgan masalalarni, agar majlisda Boshqaruv a'zolarining 50 foizidan ortiq qismi qatnashsa, hal qilishga haqlidir.

12.14. Jamiyat Boshqaruvi majlisida qarorlar majlisda qatnashayotgan Boshqaruv a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Boshqaruv majlisida masalalar hal etilayotganda Boshqaruvning har bir a'zosi bitta ovozga ega. Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda Jamiyat Boshqaruvi Raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi. Mazkur ustavning 12.17. bandining j) qismida ko'rsatilgan masala bo'yicha qaror majlisda ishtirok etayotgan Jamiyat Boshqaruvi a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

12.15. Jamiyat Boshqaruvi tomonidan qabul qilingan qarorga rozi bo'lmagan Boshqaruv a'zolari o'z fikrlarini Jamiyat Kuzatuv Kengashiga bildirishlari mumkin.

12.16. Boshqaruv majlisida bayonnoma yuritiladi. Bayonnoma majlisda ishtirok etayotgan Jamiyat Boshqaruv a'zolari tomonidan imzolanadi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi. Boshqaruv majlisining bayonnomasi Kuzatuv Kengashi va Jamiyat taftishchisiga, shuningdek auditorga ularning talabiga ko'ra beriladi.

12.17. Jamiyat Boshqaruvining majburiyatlari va vakolatlariga quyidagilar kiradi:

a) o'z vakolatlari doirasida Jamiyatning mol –mulki va pul mablag'larini tassaruf etish;

b) Jamiyatning tarkibiy bo'linmalar to'g'risidagi nizomlar, xodimlarning lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlash;

d) Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash, aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining yoki Jamiyat Kuzatuv Kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno;

e) Jamiyat sho'ba korxonalari, vakolatxonalari va filiallari uchun majburiy bo'lgan qaror, buyruq va farmoyishlar chiqarish;

f) Jamiyatning tarkibiy bo'linmalarining o'zaro samarali harakatini ta'minlash;

g) Jamiyatni rivojlantirish dasturlari va biznes – rejalari ishlab chiqish, ularni tashkil etish va bajarilishini nazorat qilish;

g') Jamiyatning vakolatli boshqaruv organi tomonidan tasdiqlangan biznes – rejada ko'rsatilgan miqdorlarda foyda olishni ta'minlash;

h) qonunchilikka muvofiq Jamiyatda buxgalteriya hisobi va hisobotining tashkil etilishi, zarur holati va ishonchliligini, yillik hisobotlar va boshqa moliyaviy hisobotlar tegishli organlarga o'z vaqtida taqdim etilishini, shuningdek aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga yuboriladigan Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlash;

i) Jamiyatning moliya – xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlar Jamiyatning Kuzatuv Kengashi, Jamiyat taftishchisi yoki Jamiyat auditori talabiga ko'ra taqdim etish;

j) o'z vakolati doirasida mol – mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol – mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim tuzish (bitim tuzish masalasida Jamiyat Boshqaruvi yakdilligiga erishilmagan hollarda bitim tuzish to'g'risidagi masala Jamiyat boshqaruvi qaroriga muvofiq Kuzatuv Kengashi hukmiga havola etilishi mumkin);

k) Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi axborotlarni saqlash. Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar ro'yxati Jamiyat Boshqaruvi tomonidan belgilanadi;

l) o'z vakolatiga tegishli ishlarning holati to'g'risidagi axborotni aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishiga va Jamiyat Kuzatuv Kengashiga belgilangan muddatda taqdim etish;

m) Jamiyat aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishida va Kuzatuv Kengashi majlislarida qatnashish, dividendlar hisoblanishi va to'lanishi bo'yicha aksiyadorlarning barcha huquqlariga rioya qilish;

n) o'z vakolatlari doirasida Jamiyatning samarali va barqaror ishlashini ta'minlash;

o) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, hamda Jamiyat ichki hujjatlariga rioya qilish;

o') Jamiyatning Boshqaruvi, qonunchilik, ushbu ustav va Jamiyatning me'yoriy xujjatlariga muvofiq boshqa xuquq (vakolat) va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

12.18. Jamiyat Boshqaruv raisining majburiyatlari va vakolatlariga quyidagilar kiradi:

a) o'zining vakolatlari doirasida Jamiyatning ishiga rahbarlik qilish;

b) Jamiyat Kuzatuv Kengashining roziligiga ko'ra uning ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etadi;

d) davlat statistika hisoboti va buxgalteriya xisobotini tegishli organlarga to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlaydi;

e) Jamiyatni malakali kadrlar bilan ta'minlaydi, Jamiyat xodimlarining bilimi, malakasi, tajribasi va qobiliyatlaridan eng yaxshi foydalanish choralarini ko'radi;

f) Jamiyat xodimlarining ijtimoiy kafolatlariga rioya qilinishini va ular mehnatini muhofaza qilishni ta'minlaydi;

g) Shtatlarni belgilaydi, xodimlarning shtat ro'yhatini tasdiqlaydi;
g') Jamiyatning filiallari va vakolatxonalari rahbarlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod etadi;
h) Jamiyat filillari va vakolatxonalari shtat jadvallarini tasdiqlaydi;
i) Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, davlat muassasalari, barcha mulk shakllaridagi korxona va tashkilotlarda uning manfaatlarini himoya qiladi;
j) Banklarda hisob raqamlar shu jumladan valyuta hisob raqamlarini ochadi va Jamiyatning bank va boshqa moliya hujjatlarida birinchi imzo vakolatiga ega bo'ladi;
k) o'zining vakolatlari doirasida, Jamiyat mijozlari, korxona va tashkilotlar bilan shartnomalar va kontraktlarni imzolaydi va bitimlar tuzadi;
l) Jamiyat xodimlarini ishga qabul qiladi, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi, ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llaydi, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomini saqlab turishini ta'minlaydi;
m) Jamiyat nomidan amaldagi qonunchilikka asosan ishonchnomalarni beradi;
n) Jamiyatning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruq va farmoyishlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;
o) Jamiyat Boshqaruvi raisi, qonunchilik, ushbu Ustav va Jamiyatning me'yoriy xujjatlariga muvofiq boshqa huquq (vakolat) va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

12.19. Jamiyat Boshqaruv raisi va Boshqaruv a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z burchlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishlari lozim.

12.20. Jamiyat Boshqaruv raisi va a'zolari Jamiyat va uning aksiyadorlari oldidagi o'z majburiyatlarini zarur darajada bajarmaganliklari uchun qonun hujjatlariga va mazkur Ustavga muvofiq javobgar bo'ladilar.

12.21. Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Jamiyat Boshqaruv a'zolari javobgar bo'lmaydi.

12.22. Boshqaruv Raisini lavozimidan bo'shatish (vakolatini tugatish) haqidagi qaror Jamiyat aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

12.23. Boshqaruv a'zolarini lavozimidan bo'shatish (vakolatini tugatish) haqidagi qaror Jamiyat Kuzatuv Kengashi tomonidan qabul qilinadi.

12.24. Boshqaruv raisi va boshqaruv a'zolari tomonidan ushbu Ustav va mehnat shartnomasi shartlari qo'pol ravishda buzilsa, yoxud Jamiyat biznes – rejasining tasdiqlangan ko'rsatkichlarni bajarilishi buzilgan hollarda va ularning harakatlari (harakatsizligi) natijasida Jamiyatga keltirilgan zararlari sababli ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi qonunchilikda belgilangan tartibda muddatidan ilgari bekor qilinishi mumkin.

12.25. Jamiyat Boshqaruv raisi va boshqaruv a'zolari vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan holda ularning vazifasini vaqtincha bajarishni Jamiyat Kuzatuv Kengashining qaroriga muvofiq tayinlangan shaxs olib borishi mumkin.

13. JAMIYATNING BUXGALTERIYA HISOBI VA MOLIYAVIY HISOBOTI

13.1. Jamiyatda buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, holati va ishonchliligi, tegishli organlarga har yilgi hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlar, shuningdek jamiyatning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida aksiyadorlarga, kreditorlarga taqdim etiladigan jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgarlik Jamiyat Boshqaruvining zimmasida bo'ladi.

13.2. Jamiyatning moliyaviy hisobotida ko'rsatilgan va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga taqdim etiladigan moliyaviy hisobotdagi, buxgalteriya balansidagi, foyda va zararlar hisobvarag'idagi ma'lumotlarning ishonchliligi mulkiy manfaatlari jamiyat yoki uning aksiyadorlari bilan bog'liq bo'lmagan auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

13.3. Jamiyatning yillik hisoboti aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan 10 (o'n) kundan kechiktirmay Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan dastlabki tarzda tasdiqlanishi lozim.

13.4. Jamiyat Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tuzilgan yillik moliyaviy hisobotni u Xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi auditdan o'tkazilganidan keyin, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida ikki hafta oldin e'lon qilishi shart.

14. JAMIYaTNING FAOLIYaTINI NAZORAT QILISH

a) Jamiyat taftishchisi

14.1. Taftishchi Jamiyatning moliya – xo'jalik faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi taftishchini 1 yil muddatga saylaydi.

14.2. Jamiyat taftishchisiga doir malaka talablari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan belgilanadi. Ayni bir shaxs Jamiyat taftishchiligiga ketma – ket 3 martadan ortiq saylanishi mumkin emas.

14.3. Jamiyat taftishchisining vakolati doirasiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyatning moliya – xo'jalik faoliyatini bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo'yicha, o'zining, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining yoki Jamiyat Kuzatuv kengashining tashabbusiga ko'ra yoxud Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra tekshirish;
- Jamiyatning hisobotlarida va boshqa moliyaviy hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligiga doir baho berish;
- buxgalteriya va statistik hisoblarni amaldagi normativ hujjatlarga munosibligini taxlil qilish;
- moliyaviy - xo'jalik va ishlab chiqarish faoliyatida o'rnatilgan normativ, qoidalarga va davlat standarlariga rioya qilinayotganligini tekshirish;
- Qonunchilik va ushbu Ustavga muvofiq aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi chaqirilishini talab qilish;
- Qonunchilik va ushbu Ustavga muvofiq Jamiyat Kuzatuv kengashining majlislarini chaqirilishini talab qilish;
- Jamiyatning barcha xizmat xonalariga to'siqsiz kirish;
- jamiyatning moliyaviy ahvolini tahlil qilish, uning to'lov qobiliyatini, tugatilishini, o'zining va zayom mablag'larini nisbatini, jamiyatning iqtisodiy holati yaxshilanishiga rezervlarni ta'sirini tahlil qilish;
- soliq inspeksiyasi, statistik va boshqa davlat boshqaruvi organlari uchun tuzilgan balans, hisobot hujjatlarni to'g'riligini tekshirish;
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorlarini taxlil qilish, qarorlar jamiyatning xujjatlariga, ya'ni amaldagi qonun va qonunosti hujjatlar talablariga to'g'ri kelmasliklari aniqlanganda takliflar kiritish;
- ish jildlaridan ayrim hujjatlarni olish (ish jildlarida hujjatlar olinishi to'g'risidagi dalolatnoma va olingan hujjatlar nusxalarini qoldirish), agarda tekshiruv mobaynida kalbakilashtirish, soxtalashtirish yoki boshqa suiste'molchilik holatlari aniqlanadigan bo'lsa;
- jamiyat boshqaruv organlari mansabdor shaxslari, jamiyat ijroiya organi tarkibiy bo'limlari mudirlari va xodimlaridan tekshiruv mobaynida paydo bo'ladigan masalalar bo'yicha yozma tushuntirishlar olish;
- jamiyat boshqaruv organlari mansabdor shaxslari, jamiyat boshqaruvi tarkibiy bo'limlari mudirlariga aniqlangan qoidabuzarliklar yuzasidan zudlik bilan choralar ko'rish to'g'risida ko'rsatmalar berish, agarda bunday choralarni ko'rmaslik qimmatliklarning, hujjatlarning yo'q bo'lishiga yoki kelgusidagi suiste'molchilik holatlarining kelib chiqishiga sabab bo'lsa;
- jamiyat boshqaruv organlari mansabdor shaxslari, jamiyat ijroiya organi tarkibiy bo'limlari mudirlari va xodimlaridan Taftishchi jamiyatning moliyaviy va xo'jalik faoliyatini tekshirilishini o'tkazishi uchun zarur bo'lgan hujjatlar va materiallarni so'rab olish;
- jamiyat boshqaruv organlari mansabdor shaxslariga jamiyat xodimlari, shu jumladan jamiyat boshqaruv organlari mansabdor shaxslariga nisbatan agarda ular tomonidan jamiyat Ustavi va jamiyat ichki hujjatlari qoidalari buzilgan bo'lsa, intizomiy va moddiy javobgarlikka tortish choralarini ko'rish to'g'risidagi masalasini ko'rib chiqishga kiritish.
- Taftishchi, qonunchilik, ushbu Ustav va «Taftishchi to'g'risida» gi Nizomga muvofiq boshqa vakolatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

14.4. Jamiyat taftishchisi faoliyatining tartibi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan «Taftishchi to'g'risida» gi Nizomda belgilab qo'yiladi.

14.5. Jamiyat taftishchining yozma talabiga ko'ra Jamiyat Boshqaruvi Jamiyatning moliya – xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni taftishchiga taqdim etishi shart.

14.6. Jamiyat taftishchisining a'zolari bir vaqtning o'zida Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zosi bo'lishi, shuningdek ayni shu Jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlashi mumkin emas.

14.7. Jamiyatning moliya – xo'jalik faoliyatini tekshirish yakunlariga ko'ra Jamiyatning taftishchisi xulosa tuzadi, bu xulosada:

- Jamiyatning hisobotlarida va boshqa moliyaviy hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligiga doir baho;
- buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni taqdim etish tartibi buzilganligi, shuningdek moliya – xo'jalik faoliyati amalga oshirilayotganda qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to'g'risidagi axborot ko'rsatilishi shart.

14.8. Taftishchi Jamiyatda affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar yoki yirik bitimlar mavjudligi, shuningdek qonun hujjatlarining va Jamiyat ichki hujjatlarining bunday bitimlarni tuzishga doir talablariga rioya qilinishi to'g'risidagi xulosani har chorakda Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisiga olib chiqadi. Ushbu Ustavning 14.7. bandida ko'rsatilgan axborotni o'z ichiga olgan xulosa aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida eshitiladi.

b) Ichki audit xizmati

14.9. Jamiyat aktivlarining balans qiymati eng kam ish haqi miqdorining yuz ming barobaridan ko'p bo'lganligi sababli Jamiyatda ichki audit xizmati tashkil etiladi. Ichki audit xizmati Jamiyatning Kuzatuv Kengashiga hisobdordir. Ichki audit xizmati a'zolarining soni va shaxsiy tarkibi amaldagi qonunchilik bilan belgilangan tartibda tashkil etiladi.

14.10. Ichki audit xizmati Jamiyat Boshqaruvining, sho'ba korxonalari, vakolatxonalari va filiallari tomonidan qonun hujjatlariga, mazkur Ustavga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta'minlanishini, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib – taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek Jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish hamda monitoring olib borish orqali Jamiyatning ijroiya organi, sho'ba korxonalari, vakolatxonalari va filiallari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi. Shuningdek ichki audit xizmati 50 foizdan ziyod ulushi Jamiyatga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar bilan o'tkazilgan operatsiyalar ustidan nazoratni amalga oshiradi.

14.11. Ichki audit xizmati o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibga muvofiq amalga oshiradi.

d) Auditorlik tashkiloti

14.12. Auditorlik tashkiloti Jamiyat bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Jamiyatning moliya – xo'jalik faoliyatini tekshiradi va unga auditorlik xulosasi taqdim etadi.

14.13. Auditorlik tashkiloti Jamiyatning moliyaviy hisoboti va moliyaga doir boshqa axborotlar haqida noto'g'ri yakun bayon etilgan auditorlik xulosasi tuzganlik oqibatida yetkazilgan zarar uchun Jamiyat oldida javobgar bo'ladi.

e) Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi

14.14. Jamiyatda minoritar aksiyadorlar qo'mitasi tashkil etilishi mumkin.

14.15. Aksiyadorlar, shu jumladan, minoritar aksiyadorlar ovoz berishda ularning birgalikdagi pozitsiyasini shakllantirish uchun aksiyadorlik bitimini tuzishlari mumkin.

14.16. Minoritar aksiyadorlik qo'mitasi tuzilgan taqdirda, jamiyat mablag'lari hisobidan minoritar aksiyadorlik qo'mitasini ta'minlash xarajatlari qoplanishi mumkin.

14.17. Minoritar aksiyadorlar hujjatlarni asossiz ravishda talab qilish va maxfiy axborotlar, tijorat sirlarini qo'llash yo'li bilan jamiyat ijroiya organi faoliyatiga to'sqinlik qilmasliklari kerak.

f) Jamiyatning korporativ maslahatchisi

14.18. Jamiyatda jamiyat kuzatuv kengashiga hisobdor bo'lgan va korporativ qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish vazifasini bajaruvchi jamiyat korporativ maslahatchisi lavozimi joriy etiladi.

14.19. Jamiyat korporativ maslahatchisi kuzatuv kengashi tomonidan tayinlanadi.

14.20. Jamiyat korporativ maslahatchisining faoliyati jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan nizom asosida amalga oshiriladi.

15. JAMIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH

15.1. Jamiyatni qayta tashkil etish (jumladan: qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish) va tugatish aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori asosida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi bilan belgilangan hollarda va tartibda amalga oshiriladi.

15.2. Jamiyatni qayta tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 49 – 52 moddalari, «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida» gi Qonunning 92 – 97 moddalariga muvofiq amalga oshiriladi.

15.3. Jamiyatning tugatilishi huquq va majburiyatlarni huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxslarga o'tkazmagan holda jamiyat faoliyatini tugatishga sabab bo'ladi.

15.4. Jamiyat quyidagi hollarda tugatiladi:

- aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq;
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq sud qaroriga asosan;
- amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sabablarga asosan.

15.5. Jamiyatni tugatish tartibi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 53 – 56 moddalari, shuningdek «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida» qonunning 98 – 101 moddalariga muvofiq amalga oshiriladi.

16. USTAVGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMChALAR KIRITISH

16.1. Jamiyat aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishi va o'z vakolatlari doirasida Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan Jamiyat Ustaviga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar O'zbekiston Respublikasining tegishli Davlat organida belgilangan tartibda ro'yxatga olinadi.

16.2. Jamiyat Ustaviga kiritilgan o'zgartishlar va qo'shimchalar yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavi uchinchi shaxslar uchun ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab, qonunchilikda belgilangan hollarda esa davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ xabardor etilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

16.3. Agar mazkur Ustavni biron bir qoidasi o'z kuchini yo'qotgan bo'lsa, bu qoida boshqa qoidalarni to'xtatish uchun sabab bo'lmaydi.

16.4. Agar O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida mazkur Ustavda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari qoidalari qo'llaniladi.

16.5. Jamiyatning ushbu Ustavi Davlat ro'yxatidan o'tkazilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani Davlat xizmatlari Markazi tomonidan 2023-yil 6-yanvarda ro'yxaga olingan Jamiyat Ustavi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanadi.